

"Qadring baland bo'lsin, ona tilim" mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi

Joriy o'quv yilining 18-oktabr kuni Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyida **"O'zbek tiliga davlat tili"** maqomi berilishi munosabati bilan **"Qadring baland bo'lsin, ona tilim"** mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi.

Tanlovda ishtirok etish istagida bo'lgan o'quvchilar o'z iqtidorlarini namoyon etishdi va ona tilimizning qadr-qimmati, unga ko'rsatishimiz kerak bo'lgan hurmat-ehtirom hamda kelajak avlodga uni yanada go'zal ko'rinishda yetkazib berish to'g'risida o'zlarining fikr-mulohazalarini bayon qildilar.

Ma'lumot o'rnida, g'oliblar akademik litseyimizda 21-oktabr kuni ona tilimizning davlat tili sifatida qabul qilinganligiga 35 yil to'lishi munosabati bilan tashkil etilishi kutilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbir davomida e'lon qilinadi.





SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati